



INFORMATIKA FANINI O'QITISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARINING AHAMIYATI

Moxitdinova Surayyo Akmalovna

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti akademik litseyi

Informatika va axborot texnologiyalari fani o'qituvchisi

moxitdinovasurayyo@gmail.com 99899 9842719

Annotatsiya: Ushbu maqolada Bugungi kunda fan hozirgi zamon axborot jamiyatining arxetipidan mustahkam o'rin olganligi, axborot texnologiyalariga alohida e'tabor qaratilayotganligi va ehtiyoj ortayotganligi, Ta'lim muassasalarining zamonaviy texnik vositalari, axborot-kommunikatsion texnologiyalar, informatika fanining o'qitishda innovatsion texnologiyalaridan foydalanish haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: ta'lim, muassasa, rivojlanish, tarbiyalash, innovatsion texnologiya, informatika, foydalanish, samaradorlikni oshirish.

Annotation: In this article, the fact that today science has taken a strong place in the archetype of the modern information society, special attention is being paid to information technologies and the need is increasing, the use of modern technical tools, information and communication technologies, and innovative technologies of computer science in the teaching of educational institutions. it's about.

Key words: education, institution, development, upbringing, innovative technology, informatics, use, efficiency improvement.

Аннотация: В данной статье подчеркивается тот факт, что сегодня наука заняла прочное место в архетипе современного информационного общества, особое внимание уделяется информационным технологиям и возрастает потребность в использовании современных технических средств, информационных и коммуникационных технологий. и инновационные технологии информатики в преподавании в образовательных учреждениях.

Ключевые слова: образование, учреждение, развитие, воспитание, инновационные технологии, информатика, использование, повышение эффективности.

Bugungi kunda fan va texnika jadal suratda rivojlanib bormoqda, bu esa yangi texnologiyalardan foydalanib dars o'tishni taqozo etadi. Kelajagimiz bo'lgan yoshlarni yuksak madaniyatli, o'tkir bilimli qilib tarbiyalashda har bir pedagog xodim o'zini mas'ul shaxs ekanligini bilgan holda, dars samaradorligini oshirib borishi, yangi texnologiyalardan unumli foydalanishi dolzarb masala hisoblanadi. Bugungi kunda fan hozirgi zamon axborot jamiyatining arxetipidan mustahkam o'rin olgan. Shunday ekan, axborot texnologiyalarni yaratish va ularni boshqarishga oid bilim, ko'nikma va layoqatning har bir insonda shakllanishi fundamental ahamiyat kasb etadi. Ta'lim tizimini axborotlashtirish - texnologik va ijtimoiy bilimlarni uzatish jarayonini



tezlashtirish, zamonaviy axborot texnologiyalari yordamida o'qitish sifatini oshirish bilan birga insonni turli ijtimoiy muhitga moslashuvini osonlashtirish imkoniyatlarini yaratadi.

Bugungi kunda informatika va axborot texnologiyalari yo'nalishidagi fanlarni o'qitishda zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalari hamda xususiy metodikalarni ishlab chiqish, ta'lim tizimida bilim, ko'nikma va malakalarning to'liq o'zlashtirilishini ta'minlash, mazkur yo'nalishidagi fanlarni o'qitishda innovatsion texnologiyalarga asoslangan ma'ruza, munozara, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarini loyihalash va pedagogik faoliyatda qo'llash, bu yo'nalishidagi fanlarni o'qitishda rivojlana. Hozirgi kunda oliy ta'lim muassalaridagi o'quv jarayonini jadallashtirishning muhim yo'nalishlaridan biri bu o'qitishni individuallashtirish va bo'lajak mutaxassislarining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish hisoblanadi. Bunga erishish esa o'qitishning faol shakllari va usullarini joriy qilish, o'quv-tarbiyaviy jarayonni ilmiy-ishlab chiqarish bilan uzviy integratsiyasini tashkil etish hamda talabalar mustaqil ta'limini tashkil etishning yangi va samarali shakllarini yaratishni taqozo etadi. Ta'lim muassasalarining zamonaviy texnik vositalar, axborot-kommunikatsion texnologiyalar va o'quv laboratoriya jihozlari bilan qaytadan ta'minlanishi talabalarning bilim samaradorligini oshirishga muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Bu esa o'z navbatida pedagog-o'qituvchilar zimmasiga yana bir qo'shimcha ma'suliyat yuklaydi. Bugungi kun o'qituvchisi endi nafaqat o'z fanini mukammal bilishi, balki zamonaviy texnik vositalar bo'yicha ham zaruriy bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlari zarurdir. Shuningdek bugungi kun o'qituvchisi an'anaviy o'qitish usullarini yanada takomillashtirib, informatika fanini o'rgatishda yangi pedagogik innovatsion texnologiyalarni o'quv jarayoniga izchil qo'llashi va jadal rivojlanib, shakllanib borayotgan o'qitish usullaridan muntazam xabardor bo'lib turish muhimdir.

Aksariyat hollarda informatika fanini o'qitishda ma'ruza usuli qo'llaniladi. Bu usul ayrim talabalarning darsda faolligini susaytiradi va tinglovchining diqqatini shu mavzuga va u bilan bog'lik bo'lgan texnik jarayonlarni tushunishga jalb qilish qiyin ekanligi ma'lum. Endilikda bizning nazarimizda mavzuni bayon qilishda va yoritib berishda ko'proq axborot-kommunikatsion texnologiyalardan foydalanish o'qitish samaradorligini yanada yaxshilaydi va oshiradin mamlakatlardagi ilg'or tajribalarni o'rganish kerakligini davr taqozo etmoqda.

Jamiyatimizning barcha qatlamlarida innovatsion texnologiyalarni qo'llash borasida savodxonlikni uzluksiz ravishda oshirib borishimizda, axborot texnologiyalari sohasida inson kapitalini rivojlantirish kadrlarni tayyorlash va ular malakasini oshirish tizimini takomillashtirish, avvalo ilg'or zamonaviy axborot-kommunikatsiya, internet hamda raqamli texnologiyalar sohasidagi bilimlarni chuqur egallash orqali amalga oshiriladi.



Mamalakatimizning ta'lim tizimida olib borilayotgan isloxotlar asosiy maqsadi ham ta'limni axborotlashtirishga, ya'ni axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etishga qaratilgandir. Jumaladan, Prezidentimiz SH.M.Mirziyoev tashabusslari bilan 2017 yil 7 fevralda qabul qilingan Farmon 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida - umumiy o'rta ta'lim sifatini tubdan oshirish, chet tillar, informatika hamda matematika, fizika, kimyo, biologiya kabi boshqa muhim va talab yuqori bo'lgan fanlarni chuqurlashtirilgan tarzda o'rganish; ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini rag'batlantirish, ilmiy va innovatsiya yutuqlarini amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish kabi dolzarb masalalarni hal qilishni maqsad qilib qo'yilgan.

Ta'limning yangi bosqichiga ko'tarilish uchun talabani o'quv jarayonining faol ishtirokchisiga aylantiruvchi turli innovatsion texnologiyalarni qo'llash zarur. "Innovatsiya" atamasi lotincha "novatio" dan kelib chiqqan bo'lib, "yangilanish" (o'zgartirish) degan ma'noni anglatadi. Innovatsiya, innovatsiya - bozor talab qiladigan jarayonlar yoki mahsulotlar samaradorligini sifat jihatidan oshirishni ta'minlaydigan joriy qilingan yangilik. O'quv faoliyatidagi "mahsulotlar" nafaqat o'quvchilarning darsda egallagan bilim va ko'nikmalari, balki ular har qanday faoliyat jarayonida egallagan turli amaliy ko'nikmalardir. Hozirgi vaqtda ta'lim mazmunini sezilarli darajada qayta qurish munosabati bilan, yangi innovatsion texnologiyalarning joriy etilishi munosabati bilan o'quv faoliyatini tashkil etishga yondashuv o'zgardir va o'quvchining bilim faolligini faollashtirish zarurati ortdi. Yangi innovatsion texnologiyalarni joriy etish o'quv jarayonini yanada samarali tashkil etish, talabalarni o'quv materialini olishning yangi vositalari, usullari va manbalari bilan ta'minlash imkonini beradi. Talabalarining innovatsion texnologiyalardan foydalangan holda o'quv faoliyatini yaxshilash uchun zamonaviy axborot texnologiyalari bo'yicha elementar bilimlar, kommunikatsiya texnologiyalarining texnik imkoniyatlari zarur, siz axborot resurslaridan foydalanish, zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida mustaqil ishlash, shuningdek faol bo'lishingiz kerak. harakat qilish, qarorlar qabul qilish, o'zgaruvchan sharoitlarga moslashuvchan tarzda moslashish.hayot. Ta'lim muhitiga innovatsion texnologiyalarni joriy etish o'quv materialining mohiyatini tushunishni shakllantiradigan axborot va hisob-kitoblarni qayta ishlashni avtomatlashtirish orqali o'quv faoliyati samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. M.Aripov, M.Muhammadiyev. Informatika, informasion texnologiyalar. Darslik. T.: TDYuI, 2004 y.
2. С.С.Фуломов ва бошқалар. Ахботор тизимлари ва технологиялари. Дарслик. Тошкент, "Шарқ", 2000



3. Мирзиёев Шавкат Миромонович. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. Ўзбекистон Республикаси Президенти лавозимига киришиш тантанали маросимига бағишланган Олий Мажлис палаталарининг қўшма мажлисидаги нутқ / Ш.М. Мирзиёев. – Тошкент : Ўзбекистон, 2016. - 56 б.

4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони. Ўзбекистон республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси тўғрисида. (*Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 й., 6-сон, 70-модда*)